

Xorijlik mutaxassisning seminar mashg'uloti

Bugungi kunda institutimizda ta'lim, innovatsiya, ilmiy izlanishlarga bo'lgan talabning yuqori darajaga ko'tarilganligi hech kimga sir bo'lmasa kerak. Talaba yoshlarni o'z sohalarning rivoji uchun jalb qilish, ularning olayotgan bilimlarini amaliyotga tadbiri yuzasidan ko'plab seminarlar, ekskursiyalar, uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Ana shunday uchrashuvlardan biri 2019-yilning 27-sentyabr kuni institut kutubxonasining videokonferensiyalar zalida Shimoliy Amerikaning Kanada shtatidan tashrif buyurgan Kiselyov Sergey tomonidan "Drenajnyy Akt Provinsii Ontario osnovnyye aspekty i primeneniye" mavzusi ostida seminar mashg'ulot ko'rinishida bo'lib o'tdi. Ushbu mashg'ulot "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasini mudiri professor Begmatov Ilhom Abduraimovich boshchiligida o'tkazildi.



Shunigdek, seminar mashg'ulotda "Gidromelioratsiya" fakulteti kadefralari professor-o'qituvchilari, bakalavr hamda magistratura bo'limlarida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etdilar. Kiselyov Sergey o'z ma'ruzasida nafaqat drenaj tarmoqlarining qurish usuli haqida balki, mahalliy dehqonlar o'rtasida ushbu tarmoqlar uchun ketadigan sarf-x-harajatlar va ularning taqsimlanishi yuzasidan o'tkaziladigan uchrashuvlar, ularning natijalari haqidagi amaliy tajribalarini ham baham ko'rdilar. Seminar yakunida barcha ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga to'laqonli javob oldilar.



«I va M» kafedrasini professori I.A. Begmatov axboroti

Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov